



O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki

Biznes kayfiyati **sharhi**

2025-yil IV chorak



Biznes kayfiyati sharhi – O‘zbekiston Respublikasi hududlaridagi iqtisodiy faollik, tadbirkorlik muhiti va bandlik bilan bog‘liq tendensiyalarni muqobil ko‘rsatkichlar orqali o‘zida ifoda etadi.



Ushbu sharh 2025-yilning IV choragida mamlakatda shakllangan biznes kayfiyatini o‘rganish maqsadida 2026-yilning yanvar oyida hududlarda o‘tkazilgan so‘rov natijalari asosida tayyorlandi. So‘rovda mamlakatning barcha hududlari to‘liq qamrab olingan bo‘lib, iqtisodiyotning turli sohalarda faoliyat yurituvchi ikki mingdan ortiq tadbirkorlar ijtimoiy tarmoqlar orqali ishtirok etdi. Bunda, tadbirkorlik faoliyati yo‘nalishlarini kengroq qamrab olish va reprezentativlikni ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratildi.

So‘rovnoma hududlardagi iqtisodiy faollik, tadbirkorlik sharoitlari va muhitiga ta‘sir qiluvchi omillar, energiya iste‘moli hajmi o‘zgarishi, yuk tashish ko‘rsatkichlari, sohalarda ishchi kuchiga bo‘lgan talab, bandlik darajasi, savdo hajmi hamda soha istiqboli bo‘yicha joriy holat va kutilmalarni aniqlash bo‘yicha savollardan tashkil topgan.

Har bir savolga bir nechta javob variantlari birlashtirilgan bo‘lib, qatnashuvchilar tomonidan bir paytning o‘zida ulardan bir yoki bir nechtasi tanlanishi mumkin. Natijalar har bir javob variantini tanlaganlar sonini umumiy javoblar soniga bo‘lish va alohida guruhlar bo‘yicha vaznli koeffitsiyentlar qo‘llash orqali umumlashtirilgan. Umumlashtirilgan ma‘lumotlar taqsimot qoidalari asosida tahlil qilinib, o‘rtacha ko‘rsatkichlar bilan taqqoslangan.

Tahlillar mamlakatning turli hududlaridagi iqtisodiy sharoitlarni qiyosiy taqqoslash va ularning o‘zgarish tendensiyalarini sifat jihatidan o‘rganish imkonini beradi.

Umumiy xulosalar

Tadbirkorlik muhiti

2025-yilning IV choragi yakunlari bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini o'rganish natijalari respublikadagi biznes yuritish muhitida ijobiy tendensiyalar davom etayotganini ko'rsatmoqda. So'rovnomada ishtirok etgan tadbirkorlarning* 60 foizi biznes sharoitlarni 2025-yilning III choragiga nisbatan yaxshilanganini ta'kidlagan. Ushbu ko'rsatkich so'nggi ikki yil davomida o'rtacha 50 foizdan yuqori darajada saqlanib kelmoqda va bu tadbirkorlar ishonchining barqarorligidan dalolat beradi.

Respondentlar biznes muhitidagi ijobiy o'zgarishlarni, avvalo, bank xizmatlari sifati va raqobat muhiti yaxshilanganini, litsenziya olish jarayonlari soddalashgani hamda ma'muriy aralashuvlar biroz kamaygani bilan izohlashgan. Shu bilan birga, monopollashuv darajasi, soliq ma'murchiligi, energiya ta'minoti va bojxona tariflari bo'yicha holat avvalgi chorak darajasida saqlanib qoldi.

Iqtisodiy faollik

Mazkur chorakda energiya iste'moli, yuk tashish hajmlari hamda qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab oshganini ta'kidlagan tadbirkorlar ulushi avvalgi chorakka nisbatan sezilarli ko'paydi. Ayniqsa, energiya iste'moli ko'payganini bildirganlar ulushi 3 foiz bandga oshib, 53 foizni tashkil etdi. Ushbu ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Sirdaryo, Xorazm va Farg'ona viloyatlarida yaqqol namoyon bo'lib, bunga asosan, moliya, qurilish, umumiy ovqatlanish, ishlab chiqarish va savdo tarmoqlari asosiy hissa qo'shdi.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi Jizzax, Qashqadaryo, Toshkent va Surxondaryo viloyatlarida sezilarli oshgan bo'lsa, Navoiy, Toshkent shahri, Sirdaryo hamda Samarqand viloyatlarida pasaydi. Tadbirkorlar tomonidan energiya ta'minotidagi uzilishlar, avtomobillar uchun yonilg'i narxlarining qimmatlashishi, soliq tizimidagi murakkabliklar, aylanma mablag'larining kamligi va ijara xarajatlarining yuqoriligi to'liq quvvatda faoliyat yuritmaslikning asosiy sabablari sifatida qayd etildi.

* So'rovda jami 2 371 ta tadbirkorlar ishtirok etdi.

Bandlik

2025-yilning IV choragi davomida mehnat bozorida faollik barqaror darajada shakllanib, aksariyat korxonalarining qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talabi ko'paygani ta'kidlandi. Jumladan, IV chorakda ishchi kuchiga talabi oshganini bildirgan tadbirkorlik subyektlari ulushi 1,5 foiz bandga oshib, 46,7 foizga yetdi.

Kelgusi choraklarda Andijon, Namangan, Samarqand, Navoiy viloyatlarida qo'shimcha ishchi kuchiga talab ortishi, Jizzax, Farg'ona hamda Buxoro viloyatlarida esa biroz pasayishi kutilmoqda. Ishlab chiqarish, ta'lim, qurilish va tashish xizmatlari sohalarida qo'shimcha ishchi kuchiga talab boshqa sohalarga nisbatan yuqori shakllanishi kutilmoqda.

Moliyaviy holat

Tadbirkorlar orasida so'nggi uch oy davomida qarz majburiyatlari o'zgarmaganini bildirgan tadbirkorlar ulushi ko'payib, 47 foizni tashkil etgan (III chorakda 45 foizni tashkil etgan). Shu bilan birga, qo'shimcha kreditlarga bo'lgan talab borasidagi kutilmalarda esa biroz oshuvchi tendensiyalar saqlanib qolmoqda. Navoiy, Namangan, Andijon, Xorazm va Toshkent viloyatlarida kelgusi chorakda kredit resurslariga ehtiyoj sezilarli oshishi kutilayotgan bo'lsa, aksincha, Farg'ona, Qashqadaryo hamda Jizzax viloyatlarida ehtiyoj pasayishi kutilmoqda. Bunda, qurilish, ishlab chiqarish, moliya, tibbiyot, qishloq xo'jaligi, turizm va ta'lim sohalarida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar tomonidan kelgusida kredit mablag'lariga nisbatan yuqori ehtiyoj mavjudligi bildirildi.

Istiqbollar

O'rta muddatli istiqbolda, tadbirkorlarning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga bo'lgan ishonchi ijobiy saqlanmoqda. 2025-yilning dastlabki choragidan buyon ijobiylik darajasi sezilarli yaxshilanib, IV chorakda so'rovlarda ishtirok etgan biznes subyektlarining 68 foizi kelgusi davrda makroiqtisodiy sharoitlar yaxshilanishiga ishonch bildirgan.



Toshkent shahri, Toshkent viloyati

2025-yilning IV choragida Toshkent shahri va Toshkent viloyatida respondentlarning 54 foizi biznes shart-sharoitlarini yaxshilangan deb baholadi. Ushbu ko'rsatkich III chorakka nisbatan 6 foiz bandga pasaydi. Xususan, moliya, hunarmandchilik, ta'lim va umumiy ovqatlanish sohalarida biznes muhiti yaxshilanganini ta'kidlaganlar ulushi III chorakka nisbatan sezilarli darajada kamaydi.

Shunga qaramay, so'rovlarda ishtirok etgan biznes subyektlar tomonidan bank xizmatlarining sifati va kredit olish imkoniyatlari yaxshilangani, shuningdek, raqobat muhiti, litsenziya-guvohnoma hamda ma'muriy aralashuvlarda ijobiy o'zgarishlar kuzatilgani qayd etildi.

Tadbirkorlar tomonidan soliq ma'murchiligi, yo'l infratuzilmasi, monopollashuv darajasi, gaz va elektr energiyasi ta'minoti hamda bojxona tariflarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmaganligi qayd etildi.


Ushbu hududlarda buyurtmalar va ishlab chiqarish hajmining oshganini qayd etgan tadbirkorlar ulushi III chorakka nisbatan mos ravishda 3 va 5 foiz bandga pastroq shakllandi.

Bunda, hunarmandchilik, maishiy xizmat, moliya va ta'lim sohasi vakillarining asosiy qismi buyurtmalar va ishlab chiqarish hajmining o'zgarmaganligi yoki kamayganligini bildirishgan.


Mehnat bozorida faollik o'zgarishsiz saqlanib qoldi. Qurilish, umumiy ovqatlanish hamda qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyoj nisbatan yuqori bo'lganligi kuzatildi.

Shuningdek, tadbirkorlarning 47 foizi energiya iste'mollari oshganini ma'lum qildi. Yuqori o'sish sur'atlari qurilish, umumiy ovqatlanish, tibbiyot va savdo sohalariga to'g'ri kelgan.


1-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



2-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



3-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Toshkent shahri, Toshkent viloyati

IV chorakda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish biroz kamaydi. Yuqori quvvatda ishlagan korxonalar ulushi 53 foizdan 49 foizga pasaydi. Bunda, hunarmandchilik, ta'lim va ishlab chiqarish sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi nisbatan past quvvatlarda faoliyat olib borayotgani kuzatildi.

To'liq quvvatda ishlay olmayotgan subyektlar gaz va elektr ta'minotidagi uzilishlar, yuqori ijara xarajatlari, aylanma mablag'ning kamligi hamda avtomobil yonilg'isining qimmatlashuvini asosiy omil sifatida baholadilar.

Ushbu davrda so'rovlarda ishtirok etgan tadbirkorlik subyektlarining 49 foizi ishlab chiqarish hajmlari, 55 foizi buyurtmalar hajmi ortishini kutmoqda. Turizm, ishlab chiqarish, qurilish va moliya sohalarida buyurtmalar hajmining yuqori o'sishi kutilmoqda.


Yoqilg'i va energiya iste'moli bo'yicha kutilmalar deyarli o'zgarishsiz saqlanib qoldi.

Qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab bo'yicha kutilmalar esa avvalgi chorakka nisbatan yuqori shakllangan. Qurilish, umumiy ovqatlanish, aloqa va axborot hamda turizm sohalarida kelgusida qo'shimcha ishchi kuchiga ehtiyoj yuqori bo'lishi mumkinligi qayd etildi.


Shu bilan birga, kelgusida qo'shimcha kredit resurslariga ehtiyoj mavjudligini ta'kidlagan biznes subyektlarining ulushi III chorakka nisbatan sezilarli oshdi. Kreditga bo'lgan talab, ayniqsa, tibbiyot, hunarmandchilik, ishlab chiqarish va maishiy xizmat sohalarida oshishi kutilmoqda.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarning 67 foizi kelgusi uch yilda mamlakatimiz iqtisodiyoti va biznes muhitining yaxshilanishiga ishonch bildirgan bo'lib, o'tgan chorakka nisbatan biroz kamaydi.


4-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



5-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



6-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Buxoro, Navoiy, Samarqand

2025-yilning IV choragida Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlarida o'tkazilgan so'rov natijalari tadbirkorlik muhitidagi ijobiy tendensiyalar barqaror davom etayotganini ko'rsatdi. Tadbirkorlik subyektlarining 64 foizi biznes sharoitlari yaxshilanganini ta'kidladi. Ushbu ijobiy o'zgarishlar maishiy xizmatlar, moliya, savdo, qishloq xo'jaligi va umumiy ovqatlanish sohalarida sezilarli bo'lganligi qayd etildi.

Tadbirkorlar tomonidan bank xizmatlari sifati va kredit olish imkoniyatlari yaxshilangani bilan birga, litsenziya olish jarayonlari, raqobat muhiti hamda ma'muriy aralashuvlardagi ijobiy o'zgarishlar asosiy omillar sifatida qayd etildi. Aksincha, soliq ma'murchiligi, bojxona tariflari hamda gaz va elektr ta'minoti sohalarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmagani ta'kidlandi.

Raqobat muhiti III chorakka nisbatan yaxshilanib, respondentlarning 60 foizi, ayniqsa, tibbiyot, moliya, turizm va qurilish sohalarida faoliyat olib borayotgan korxonalar ijobiy o'zgarishlarni qayd etdi.


Shuningdek, so'rovlarda ishtirok etgan biznes subyektlarining 56 foizi yo'l infratuzilmasida ijobiy o'zgarishlar bo'lganini ta'kidladi.

2025 yilning IV choragida iqtisodiyotda ishlab chiqarish bo'yicha ijobiy muhit saqlanib qoldi. Xususan, ishlab chiqarish, qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab va yuk tashish hajmlarining oshganini qayd etgan subyektlar ulushi III chorakka nisbatan ko'paydi.


Buyurtmalar hajmida ham ijobiy dinamika saqlanib, ushbu chorakda, asosan, moliya, turizm hamda aloqa va axborot sohalarida hisobiga ta'minlandi.

Qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab ta'lim, moliya va umumiy ovqatlanish sohalarida oshgan bo'lsa, maishiy xizmat, hunarmandchilik va tashish xizmatlari sohalarida biroz pasaydi.


7-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



8-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



9-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Buxoro, Navoiy, Samarqand

Kuzatuv davrida to'liq quvvatlarda faoliyat olib borayotgan korxonalar ulushi III chorakka nisbatan o'zgarmagan bo'lsa-da, o'rta quvvatlarda ishlayotganlar ulushi kamayib, past quvvatlarda faoliyat olib borayotgan subyektlarning ulushi 27 foizdan 37 foizgacha oshdi. Bu, asosan, qurilish, umumiy ovqatlanish, tibbiyot, aloqa va axborot hamda hunarmandchilik sohalarida korxonalarining nisbatan past quvvatlarda faoliyat olib borayotgani hisobiga yuzaga keldi.

Tadbirkorlar tomonidan to'liq quvvatlarda ishlamaslikning asosiy sabablari sifatida energiya ta'minotidagi uzilishlar, ichki talabning yetarli darajada emasligi, yonilg'i-energiya mahsulotlari narxining qimmatlashishi hamda soliq tizimidagi qiyinchiliklar qayd etildi.

So'rovlarda qatnashgan biznes subyektlarining kelgusida buyurtmalar va ishlab chiqarish hajmlari, shuningdek, yoqilg'i iste'moli hamda kredit to'lovlari oshishi bo'yicha kutilmalari avvalgi chorakka nisbatan biroz yuqori shakllangan.


Respondentlarning 59 foizi kelgusi chorakda buyurtmalar hajmining oshishini kutmoqda. Bu, ayniqsa, tibbiyot, moliya, maishiy xizmat hamda aloqa va axborot sohalarida sezilarli bo'lishi mumkin.

Maishiy xizmatlar, moliya, ishlab chiqarish, tashish xizmatlari va qurilish yo'nalishlarida kelgusi choraklarda energiya iste'molining yuqori o'sishi kutilmoqda.


Shu bilan birga, yuk tashish hajmi va qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab bo'yicha kutilmalar deyarli o'zgarishsiz saqlanib qoldi.

Tadbirkorlarning 67 foizi kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhitining yanada yaxshilanishiga ishonch bildirgan.


10-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



11-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



12-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Andijon, Namangan, Farg'ona

2025-yilning IV choragida Farg'ona vodiysida so'rovlarda ishtirok etgan biznes subyektlarining 66 foizi biznes sharoitlari yaxshilanganini ta'kidladi. Xususan, umumiy ovqatlanish, fan-ta'lim va qurilish sohalarida biznes muhiti yaxshilanganini ta'kidlaganlar ulushi III chorakka nisbatan sezilarli darajada oshdi.

Tadbirkorlar tomonidan, asosan, bank xizmatlari sifati oshgani, kredit resurslarini olish kengaygani, litsenziya va guvohnoma olish jarayonlari hamda raqobat muhitining yaxshilanayotgani, shu bilan birga, ma'muriy aralashuvlar kamaygani qayd etildi. Monopollashuv darajasi, gaz va elektr ta'minoti hamda bojxona tariflarida ijobiy baholar nisbatan kamroq darajada shakllandi.


So'rovlarda buyurtmalar hajmi ko'payganini bildirgan biznes vakillarining ulushi III chorakka nisbatan kamaygan bo'lsa, kredit to'lovlari ko'payganini ta'kidlaganlar ulushi oshdi. Qolgan iqtisodiy faollik ko'rsatkichlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmagan.

Korxonalarining 58 foizi buyurtmalar hajmi ko'payganligini bildirdi. Hunarmandchilik, qurilish, turizm, ishlab chiqarish va savdo sohalarida buyurtmalar hajmi oshgan bo'lsa, aksincha, umumiy ovqatlanish hamda maishiy xizmatlar sohalarida buyurtmalar hajmi kamaygan.


Tadbirkorlarning 59 foizi energiya iste'moli oshganini ma'lum qildi.

Mehnat bozorida ham ijobiy faollik saqlanib, qo'shimcha ishchi kuchiga talab qurilish, fan-ta'lim va moliya tarmoqlarida ko'paydi. Biroq umumiy ovqatlanish, maishiy xizmatlar hamda tashish xizmatlari sohalarida ushbu ko'rsatkich biroz sekinlashdi.


13-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



14-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



15-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Andijon, Namangan, Farg'ona

Mazkur hududlarda to'liq quvvatlarda ishlayotgan korxonalar ulushi avvalgi chorakka nisbatan 3 foiz bandga ko'paygan bo'lsa, aksincha, yuqori va o'rta quvvatlarda faoliyat olib borayotgan korxonalar ulushi 9 foiz bandga qisqarib, 51 foizni tashkil etdi. Tibbiyot, aloqa va axborot, ta'lim, hamda maishiy xizmat sohalari nisbatan yuqori quvvatda faoliyatini davom ettirgan.


Ishlab chiqarish quvvatlaridan nisbatan o'rta yoki past darajada faoliyat yuritib kelayotgan korxonalar gaz va elektr ta'minotidagi uzilishlar, yonilg'ining qimmatlashuvi hamda ichki talab va aylanma mablag'larning yetarli emasligini asosiy omillar sifatida ta'kidladilar.

Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, umuman olganda, ijobiy shakllandi. Respondentlarning fikriga ko'ra, kelgusida yonilg'i va energiya iste'moli, yuk tashish, ishlab chiqarish va buyurtma hajmlari, ishchi kuchiga bo'lgan talabning sezilarli ko'payishi qayd etildi. So'rovlarda ishtirok etgan biznes subyektlarining 67 foizi buyurtmalar hajmining oshishini kutayotganini bildirdi. Kelgusi davrda buyurtmalar hajmi oshishi qurilish, hunarmandchilik, turizm, savdo, ishlab chiqarish va moliya sohaslarida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar tomonidan qayd etildi.


Mehnat bozoriga oid kutilmalarda qo'shimcha ishchi kuchiga ehtiyojni qurilish, fan-ta'lim va moliya sohalari yuqori baholagan bo'lsa, tashish xizmati, maishiy xizmat hamda aloqa va axborot sohalari joriy holatda saqlanib qolishini kutmoqda.

So'rovnomada qatnashgan biznes vakillarining 76 foizi kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhiti yaxshilanishiga ishonch bildirdi.


16-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



17-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



18-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Qashqadaryo, Surxondaryo

2025-yilning IV choragida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida o'tkazilgan so'rov natijalari tadbirkorlik muhitidagi ijobiy tendensiyalar barqaror saqlanayotganini ko'rsatdi. Tadbirkorlik subyektlarining 51 foizi biznes shart-sharoitlari yaxshilanganini ta'kidladi.

Tibbiyot, ishlab chiqarish va ta'lim sohalarida biznes muhitining yaxshilanganini qayd etgan tadbirkorlar ulushi sezilarli ortgan bo'lsa, turizm, moliya, hunarmandchilik va tashish xizmati sohalarida ijobiy o'zgarishlarni qayd etganlar qisqardi.

Ishbilarmonlarning qayd etishicha, bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlarining ortishi, raqobat muhitining yaxshilanishi, shuningdek, ma'muriy aralashuvlar kamaygani hamda litsenziya va guvohnomalarni olish tartibining soddalashishi tadbirkorlik faolligini rag'batlantirgan asosiy omillardan bo'ldi. Soliq ma'murchiligi, bojxona tariflari hamda energiya ta'minoti borasida esa sezilarli o'zgarishlar kuzatilmadi.


Fan-ta'lim, hunarmandchilik, savdo va moliya sohalarida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar bank xizmatlari sifati yaxshilanganini qayd etgan.

Ushbu yuqorida keltirilgan sohalarda kredit olish imkoniyatlari yaxshilanganini ma'lum qilgan tadbirkorlar ulushi 70 foizdan yuqorini tashkil qildi.


Yonilg'i va energiya iste'moli, buyurtmalar hajmi, qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab va ishlab chiqarish hajmi oshganini qayd etganlar ulushi oldingi chorakka nisbatan kamaygan bo'lsa, kredit to'lovlari oshganligini bildirganlar ulushi ko'paydi.

Bunda, tibbiyot, turizm va moliya sohalarida kredit to'lovlari oshganligi ta'kidlangan bo'lsa, aksincha, hunarmandchilik sohasi vakillari kredit to'lovlari hajmining qisqarganini qayd etgan.


19-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



20-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



21-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Qashqadaryo, Surxondaryo

O'rta va nisbatan yuqori quvvatlarda ishlayotgan subyektlar ulushi III chorakka nisbatan 5 foiz bandga oshib, 47 foizni tashkil etdi. Bu, asosan, tashish, turizm, tibbiyot, aloqa va axborot sohaslarida korxonalarining nisbatan yuqori quvvatlarda faoliyat olib borayotgani hisobiga yuzaga keldi. Hunarmandchilik, ta'lim va ishlab chiqarish sohaslaridagi korxonalar nisbatan yuqori quvvatlarda ishlagani kuzatildi.

Tadbirkorlar to'liq quvvatda ishlamasligiga asosiy omillar sifatida gaz va elektr energiyasi ta'minotidagi uzilishlar, ichki talab va aylanma mablag'larning yetarli darajada emasligi, soliq tizimidagi qiyinchiliklar hamda yonilg'i narxining oshishini qayd etdilar.

Kelgusi davrdagi iqtisodiy faollik bo'yicha biznes subyektlarining ijobiy kutilmalari biroz pasaydi. Jumladan, energiya iste'moli, ishlab chiqarish va yuk tashish hajmi, qo'shimcha ishchi kuchiga talab hamda kredit to'lovlari bo'yicha ijobiy baholar biroz kamaygan bo'lsa, kelgusida buyurtmalar hajmi joriy holatda saqlanib qolishi kutilmoqda.


O'tkazilgan so'rovlar natijalariga ko'ra, umumiy ovqatlanish va turizm sohaslarida kelgusi davrda energiya iste'moli kamayishi kutilmoqda.

Tadbirkorlarning 52 foizi kelgusida buyurtmalar hajmining ortishini kutmoqda. Xususan, maishiy xizmat, ta'lim va savdo sohalari vakillari buyurtmalar yuqori o'sishini kutmoqdalar.


Mehnat bozorida faollik kelgusida biroz qisqarishi kutilmoqda. Jumladan, tashish, umumiy ovqatlanish, moliya va hunarmandchilik sohaslarida kelgusi davrda qo'shimcha ishchi kuchiga ehtiyoj qisqarishi ta'kidlandi.

Ushbu hududda so'rovnomada ishtirok etgan biznes subyektlarining 64 foizi kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyotida hamda biznes muhitida ijobiy o'zgarishlar bo'lishiga ishonch bildirdi.


22-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



23-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



24-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Jizzax, Sirdaryo

2025-yilning IV choragida Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida o'tkazilgan so'rov natijalari tadbirkorlik muhitidagi ijobiy tendensiyalar barqaror saqlanayotganini ko'rsatdi. Xususan, tadbirkorlik subyektlarining 60 foizi biznes sharoitlari yaxshilanganini ta'kidladi.

Tibbiyot, savdo, umumiy ovqatlanish va qurilish sohalarida biznes muhitining yaxshilanganini qayd etgan tadbirkorlar ulushi sezilarli ortgan bo'lsa, ta'lim, tashish xizmatlari, ishlab chiqarish, moliya hamda hunarmandchilik sohalarida biroz kamaydi.

Tadbirkorlar bank xizmatlari, kredit olish imkoniyatlari, yo'l-transport infratuzilmasi va raqobat muhiti yaxshilanganini eng muhim ijobiy omillar sifatida ko'rsatdilar. Energiya ta'minoti, monopollashuv darajasi hamda bojxona tariflarida ijobiy o'zgarishlar bo'lganini qayd etganlar ulushi III chorak darajasida qolib, sezilarli o'sish qayd etilmadi.

Tadbirkorlarning 59 foizi kredit olish imkoniyatlari yaxshilanganini bildirdi. Ushbu ko'rsatkich tibbiyot, moliya, tashish xizmatlari, ishlab chiqarish va savdo tarmoqlarida yuqoriroq shakllandi.

So'rovlarda qatnashgan biznes subyektlarining 47 foizi qo'shimcha ishchi kuchiga talab, ishlab chiqarish va buyurtmalar hajmlari bo'yicha ijobiy o'zgarishlarni qayd etgan.


Ishlab chiqarish hajmi qurilish, qishloq xo'jaligi, tashish xizmatlari va ta'lim tarmoqlarida kengaydi. Buyurtmalar hajmi esa, asosan, ishlab chiqarish, qurilish, moliya va savdo sohalarida ko'paydi.

Ishchi kuchiga ehtiyojning ortishi tibbiyot, ishlab chiqarish, qurilish va turizm tarmoqlarida yuqori bo'lganligi ta'kidlandi.


Shuningdek, qishloq xo'jaligi, maishiy xizmat, ishlab chiqarish va umumiy ovqatlanish tarmoqlarida elektr energiyasi va yonilg'iga talab yuqori shakllangan.

Kreditlar va ular bo'yicha to'lovlar hajmi oshganligini ma'lum qilganlar ulushi kamaydi. Bunda yuqori pasayish qishloq xo'jaligi, aloqa va axborot, ishlab chiqarish hamda qurilish tarmoqlarida kuzatildi.


25-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



26-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



27-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Jizzax, Sirdaryo

Korxonalarining 47 foizi o'рта va yuqori quvvatlarda ishlayotganini bildirgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich III chorakka nisbatan biroz yaxshilangan.

O'рта hamda yuqori quvvatlarda faoliyat yuritgan korxonalar, asosan, moliya, aloqa va axborot, maishiy xizmat hamda umumiy ovqatlanish sohaslariga to'g'ri keldi. Quvvatlaridan to'liq foydalana olmagan tadbirkorlar esa, asosan, ishlab chiqarish, savdo, turizm va qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yuritmoqda.

Asosiy omillar sifatida energiya ta'minotidagi uzilishlar, aylanma mablag'larning yetarli emasligi, ijara to'lovlarining qimmatlashishi, soliq tizimidagi qiyinchiliklar va yonilg'i narxlarining oshishi ko'rsatilgan.


Respondentlarning aksariyat qismi, xususan, ishlab chiqarish, qurilish, qishloq xo'jaligi, savdo va tibbiyot sohalari vakillari buyurtmalar hajmi sezilarli o'sishini kutmoqdalar.

Qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab, ishlab chiqarish, yuk tashish va energiya iste'moli hajmlari borasidagi kutilmalar biroz kamaygan bo'lsa-da, ijobiylikicha saqlanib qolmoqda.


Mehnat bozorida nisbatan faollik saqlanib qolmoqda. Respondentlarning 50 foizi qo'shimcha ishchi kuchiga talabi oshishini kutmoqda. Bunda, asosiy o'sish qurilish, ishlab chiqarish, umumiy ovqatlanish, qishloq xo'jaligi va tibbiyot tarmoqlarida bo'lishi ma'lum qilindi.

Jizzax va Sirdaryo viloyatida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarning 63 foizi kelgusi uch yil ichida mamlakatimiz iqtisodiyoti va biznes muhitining yaxshilanishiga ishonch bildirgan.


28-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



29-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



30-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Qoraqalpog'iston, Xorazm

2025-yilning IV choragida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida tadbirkorlik muhiti oldingi chorakka nisbatan sezilarli yaxshilandi. So'rovda qatnashgan tadbirkorlarning 62 foizi biznes yuritish sharoitlari yaxshilanganini qayd etdi (III chorakda 57 foiz). Xususan, tashish xizmatlari, ishlab chiqarish, umumiy ovqatlanish, moliya va savdo sohalarida biznes muhitining yaxshilanganini qayd etgan tadbirkorlar ulushi sezilarli ortgan.


Biznes vakillari tomonidan bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlari, raqobat muhiti, shuningdek, litsenziya olish jarayonlari asosiy ijobiy omillar sifatida qayd etildi. Bojxona tariflari, soliq ma'murchiligi hamda yo'l infratuzilmasi kabi omillarda esa sezilarli yaxshilanish kuzatilmagani ta'kidlandi.

Tadbirkorlar avvalgi chorak bilan solishtirganda kredit olish jarayonlari soddalashganligi, raqobat muhiti va soliq ma'murchiligi yaxshilanganini ko'proq qayd etishdi. Xususan, umumiy ovqatlanish, aloqa va axborot, tashish xizmatlari va savdo sohalarida vakillari kredit olish imkoniyatlarining kengayganligini ta'kidlagan bo'lsa, tashish xizmatlari, aloqa va axborot, ishlab chiqarish hamda umumiy ovqatlanish sohalarida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar raqobat muhitining yaxshilanganligini bildirishgan.


Shuningdek, energiya iste'moli, ishlab chiqarish, buyurtmalar va yuklarni tashish hajmi hamda qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab bo'yicha ijobiy baholar III chorakka nisbatan sezilarli ko'paydi.

Energiya iste'moli umumiy ovqatlanish va ishlab chiqarish sohalarida, buyurtmalar hajmi esa aloqa va axborot, tashish xizmatlari, ishlab chiqarish hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlarida yuqori darajada ko'paygan.


31-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



32-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



33-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Qoraqalpog'iston, Xorazm

Korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi biroz yaxshilandi. Jumladan, 42 foiz tadbirkorlar o'рта va yuqori quvvatlarda ishlayotganini ma'lum qildi (III chorakda 39 foiz).

Quvvatdan to'liq foydalana olmayotgan tadbirkorlar energiya ta'minotidagi uzilishlar, soliq tizimidagi murakkabliklar, avtomobil yonilg'isi narxining oshishi, ijara xarajatlarining yuqoriligi, aylanma mablag'lari hamda talabning yetarli darajada emasligini ta'kidladilar.

Tadbirkorlar orasida kelgusi davrda iqtisodiy faollik bo'yicha ijobiy kutilmalar shakllangan. Jumladan, respondentlar kelgusida ishlab chiqarish, buyurtmalar va yuk tashish hajmlarining oshishini, shuningdek, qo'shimcha ishchi kuchiga, kreditlarga hamda energiyaga talab ortishini kutishmoqda.


Aloqa va axborot, ishlab chiqarish, tashish xizmatlari hamda qishloq xo'jaligi sohalarida ishlab chiqarish hamda buyurtmalar hajmining ortishi bo'yicha kutilmalar ijobiy shakllangan.

Mehnat bozorida faollik saqlanib qolmoqda. Respondentlarning 52 foizi qo'shimcha ishchi kuchiga talabi oshishini kutmoqda. Bunda, asosiy o'sish ishlab chiqarish hamda buyurtmalar hajmining ortishi kutilayotgan sohalarga to'g'ri kelmoqda.


Shuningdek, tadbirkorlarning 63 foizi kelgusida yoqilg'i va energiya iste'moli oshishini taxmin qilmoqda. Sohalar kesimida ishlab chiqarish, tashish xizmatlari, qishloq xo'jaligi hamda hunarmandchilik sohalarida yuqori kutilmalar shakllangan.

So'rovnomada qatnashgan biznes vakillarining 69 foizi kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhiti yaxshilanishiga ishonch bildirdi.

34-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



35-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



36-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda

